



## JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING SPORT O'YINLARI YORDAMIDA KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

**MATNIYAZOV Xasan Komolovich**

*Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi dotsenti*

*p.f.b.f.d. (PhD)*

*[matniyazovxasan0@gmail.com](mailto:matniyazovxasan0@gmail.com)*

*Tel: +998975118411*

### ANNOTATSIYA

*Maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislari o'rtaida turli sport turlari, shu jumladan, voleybol bilan shug'ullanishning pedagogik oliy o'quv yurtlari jismoniy tarbiya fakulteti talabalari o'rtaida kasbiy mahorat va shaxsiy fazilatlarning shakllanishiga ta'sirini aniqlash uchun o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** Oliy o'quv yurtlari, vositalar, ko'nikmalar, dars, jismoniy madaniyat, shakllantirish, bilim, kasbiy mahorat.

### АННОТАЦИЯ

*В статье представлены результаты анкетного опроса, проведенного среди специалистов в области физической культуры и спорта по выявлению влияния занятий различными видами спорта, в том числе волейболом, на формирование профессиональных умений и личностных качеств у студентов факультета физической культуры педагогических вузов.*

**Ключевые слова:** Высшее учебное заведение, средство, навыки, урок, физическая культура, формирование, знание, профессиональные умения.

### ABSTRACT

*The article presents the results of a questionnaire survey conducted among specialists in the field of physical culture and sports to identify the influence of practicing various sports, including volleyball, on the formation of professional skills and personal qualities among students of the Faculty of Physical Culture of pedagogical universities.*

**Key words:** Higher educational institutions, means, skills, lesson, physical culture, formation, knowledge, professional skills.

### KIRISH

Adabiy manbalarni tahlil qilish o'qituvchining va xususan jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahorati doirasini aniqlash, ularni shakllantirish yo'llarini belgilash va aniqlashtirish imkonini berdi.

Mutaxassislarini so‘rovnoramadan o‘tkazish yordamida har xil sport turlari bilan shug‘ullanishning jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy mahoratlarini shakllantirishga ta’siri aniqlandi. Ta’sir darajasi 1 dan 3 gacha bo‘lgan ballar soni bo‘yicha baholandi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining shaxsiy sifatlarini shakllantirish vositalarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma voleybol sohasidagi (56-ta) mutaxassislar ishtirok etishdi.

Omadsizlikka yoki g‘alabaga bo‘lgan ishonch motivatsiyasini o‘rganish va diagnostika qilish uchun A.A.Reanning “G‘alaba motivatsiyasi” va T.Elersning “Omadsizliklardan qochishga motivatsiya” [5] metodikalari bo‘yicha birinchi bosqich talabalari orasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Shuningdek, M. Sukerman (5) tomonidan ishlab chiqilgan “His-tuyg‘ularni izlashda talablarni diagnostika qilish” adaptiv metodikasi qo‘llanildi, unga ko‘ra, his-tuyg‘ularga bo‘lgan talabning yuqori darajasi nazoratsiz, yangi, “asablarni qitiqlovchi” taassurotlarga bo‘lgan qiziqishning mavjudligini anglatadi, bu sub’ektni tez-tez xavfli tadbirlarda va avantyuralarda ishtirok etishga undashi mumkin.

Sport sifatlarini boshqa sport turlari faoliyatida namoyon bo‘ladigan boshqa sifatlarga almashish hodisasi qay miqdorda namoyon bo‘lishini aniqlash maqsadida, N.E.Stambulova tomonidan ishlab chiqilgan “Sportchi talabalarning irodaviy sifatlarni o‘z-o‘zi baholash” [5] metodikasini qo‘llash bilan o‘z-o‘zini baholash metodi yordamida o‘zini tuta bilishlik va chidamlilik sifatlari aniqlandi. Tirishqoqlikni baholash uchun, E.P. Ilin va E.K. Feshenko tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zining tirishqoqligini baholash uchun so‘rovnoma” va “O‘zining qat’iyatliligini baholash uchun so‘rovnoma”lardan foydalanildi [5].

O‘qituvchining jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari yordamida rivojlantirish mumkin bo‘lgan kasbiy mahoratlarini aniqlash uchun, bir nechta mualliflarning ilmiy-uslubiy adabiyotlari manbalarini tahlil qildik [2, 5, 8, 9].

Guruhlarga ajratilgan kasbiy mahoratlarni saralash tahlil natijasi hisoblanadi. Shunga asoslanib, ettita guruhgaga ajratilgan 55 ta kasbiy sifatlarni o‘z ichiga olgan so‘rovnoma ishlab chiqildi: axloqiy, shaxsiy, ishga munosabati, irodaviylik, jamoada o‘zini tutish, aqliy, fiziologik. Sakkizinchgi guruhgaga ettita pedagogik qobiliyatlar kiritildi. 37 ta pedagogik mahoratlar besh guruhgaga bo‘lindi: kommunikativ, gnostik, harakatli, konstruktiv, tashkiliy.

N. V. Kuzmina [6] tomonidan taklif etilgan ushbu tasnif harakatli mahoratlar guruhi bilan birgalikda qo‘llanildi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy mahoratlarini shakllantirishga sport ixtisoslashuvining ta’sir darajasini aniqlash uchun, jismoniy tarbiya va sport sohasining 110 nafar mutaxassislarini so‘rovnoramadan o‘tkazdik, ulardan 25 nafari

sport ustalari, 36 nafari sport ustaligiga nomzod. Respondentlarning 29,6% ini - tezlik-kuch sport turlari (engil va og‘ir atletika, suzish va boshqalar), 27,9% - sport o‘yinlari ixtisosligi, 24,4% - yakkakurash, 18,2% - gimnastika sport turlari vakillari tashkil etdi.

So‘rovnama ishtirokchilari tomonidan 55 ta kasbiy sifat va 37 ta pedagogik mahoratlar 1 dan 3 gacha bo‘lgan ballar miqdori bo‘yicha baholandi, so‘ngra har bir sifat uchun o‘rtacha ball (M) hisoblandi. Yuqori aniqlikka erishish uchun natijalarni qayta ishlashda har bir guruhdan 40 ta so‘rovnama tanlab olindi. Maksimal va minimal baholarni o‘z ichiga olgan so‘rovnomalar qayta ishlanmadi. Kasbiy sifatlar va pedagogik mahoratning har biri 1 dan 3 gacha bo‘lgan ballar miqdori bo‘yicha baholandi, so‘ngra o‘rtacha ball hisoblandi.

Sport o‘yinlari ixtisosligida eng ko‘p shakllanadigan kasbiy sifat va qobiliyatlar: g‘alabaga bo‘lgan iroda, qat’iyatlilik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, stressga chidamlilik, bardoshlilik, kirishimlilik va faollik, mehnatsevarlik va bir onli ko‘rish reaksiyasi ajratildi. So‘rovnomaning ishtirokchilari, yakkakurash vakillari: o‘z-o‘zini nazorat qilish, g‘alabaga bo‘lgan iroda, kirishimlilik va faollik sifatlarini, tezlik-kuch sport turlari vakillari: mehnatsevarlik g‘alabaga bo‘lgan iroda, qat’iyatlilik va bardoshlilik sifatlarini qayd etishdi.

1-jadvalda sport ixtisosligining guruhlarga bo‘lingan kasbiy sifat va qibiliyatlarni shakllantirishga ta’siri darajasi keltirilgan. Sport o‘yinlari bilan shug‘ullanganda, boshqa sport turlariga nisbatan pedagogik qobiliyatlar, irodaviylik, aqliy va psixofiziologik sifatlar eng yuqori darajada shakllanadi.

### 1-jadval

#### Sport ixtisosligining kasbiy sifat va qibiliyatlarning shakllanishiga ta’siri darajasi (ball)

№	Kasbiy sifat va qibiliyatlar (guruuhlar)	Sport o‘yinlari		Yakka kurash		Tezlik-kuch sport turlari		Gimnastika	
		M	O‘rin	M	O‘rin	M	O‘rin	M	O‘rin
1.	Irodaviylik	2,84	1	2,52	2	2,38	3	2,32	4
2.	Psixofiziologik	2,80	1	2,17	3	2,40	2	2,11	4
3.	Ishga bo‘lgan munosabat	2,46	2	2,75	1	2,31	4	2,40	3
4.	Pedagogik	2,65	1	2,14	3	2,13	4	2,21	2
5.	Intellektual	2,55	1	2,32	2	2,25	4	2,30	3
6.	Odob-ahloq	2,44	2	2,79	1	2,39	4	2,44	3
7.	Jamoada o‘zini tutish	2,40	3	2,42	2	2,44	1	2,36	4
8.	Shaxsiy	2,27	4	2,32	3	2,44	2	2,65	1

Sport o‘yinlaridagi birinchi o‘rin va boshqa sport turlari egallagan xuddi o‘sha pedagogik sifatlar va qobiliyatlar bo‘yicha ikkinchi o‘rinlar orasidagi ballar farqining ishonchliligi, Styudent t-mezoni (kriteriysi) bo‘yicha aniqlandi va ular quyidagicha: irodaviylik - kommunikativ -  $t=2,8$ ; psixofiziologik -  $t=3,1$ ; pedagogik -  $t=3,4$ ; intellektual -  $t=2,1$ . t **tsor.=2,0** da, R=0,95 uchun.

Shunday qilib, jadvalda berilgan so‘rovnoma natijalarini, xususan: sport o‘yinlarining irodaviylik (2.84 b.), psixofiziologik (2.80 b.) pedagogik (2.65b.) va intellektual (2.55 b.) sifatlarning shakllanishiga yuqori ta’sirini tahlil qilib, quyidagilarni qayd etish zarur deb hisoblaymiz:

1. Murabbiylar, mutaxassislar va tadqiqotchilarining ko‘pchiligi tomonidan sport o‘yinlarining irodaviylik sifatlarini tarbiyalashga yuqori ta’siri haqida bildirilgan fikr tasdiqlandi [4].

2. Psixofiziologik sifatlarning birinchi o‘rni, ehtimol, ushbu xususiyatlarning (shovqinga chidamlilik, diqqatning taqsimlanishi, diqqatning barqarorligi, tezkor ko‘rish reaksiyasi, diqqatni almashtirish) sport o‘yinlari bilan mashg‘ulotlari davomida muqarrar ravishda ishlab chiqiladigan sifatlar mos kelishi bilan aniqlanadi va shuning uchun mavjud bo‘lganlarga qo‘srimcha ravishda yangi usullarni ishlab chiqishni talab qilmaydi.

3. Pedagogik qobiliyatning birinchi o‘rnini, murabbiy (o‘qituvchi) va har bir sportchi (o‘quvchi) ning o‘zaro yaqin hamkorligi bilan izohlash mumkin.

4. Fikrlashning aniqligi, fikrlashning tanqidiyligi, tasavvur, sezgi, ixtirochilik, qiziquvchanlik, fikrlashning moslashuvchanligi kabi intellektual sifatlar yakkakurash uchun zarur deb topildi. Ushbu xulosaning haqqoniyligini deyarli voleybolning barcha mutaxassislari tasdiqlashadi, ularning ta’kilashicha, voleybolchi taktik mahoratining asosida voleybolchining o‘zi boshlanadigan fikrlash va aqliy imkoniyatlar yotadi [3]. Taktik fikrlashning eng muhim tarkibiy qismi sezgi va tasavvur hisoblanadi [7].

Olingan natijalardan kelib chiqib, voleybol vositalari yordamida kasbiy sifat va qobiliyatlarni ishlab chiqish va shakllantirish masalalarini o‘rganish uchun quyidagilarni ajratib oldik:

1. Pedagogik qobiliyatlar orasidan oldindan ko‘ra bilish va prognozlashni, voleybolni o‘rgatish jarayonida o‘z rivojlanishini talab qiladigan va har bir shug‘ullanuvchining ushbu sport turida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga asoslanadigan qobiliyat sifatida ajratib oldik.

2. Oldindan ko‘ra bilish va prognozlashga bevosita bog‘liq bo‘lgan, asosiy e’tibor sezgi va tasavvurga qaratiladigan intellektual sifatlardir.

3. Irodaviylik sifatlari ichidan eng ko‘p ball to‘plagan qat’iyatlilik, o‘z-o‘zini nazorat qilishni ajratib oldik (2-jadval).

### 2-jadval

#### **Sport o‘yinlari bilan shug‘ullanishning irodaviylik sifatlarni shakllanishiga ta’siri (ball)**

Nº	Irodaviylik sifatlari	M	O‘rin
1.	<b>Dadillik</b>	<b>2,89</b>	<b>1</b>
2.	<b>Jasurlik</b>	<b>2,76</b>	<b>2</b>
3.	<b>G‘alabaga bo‘lgan iroda</b>	<b>2,73</b>	<b>3</b>
4.	<b>Qat’iyatlilik</b>	<b>2,43</b>	<b>4</b>
5.	<b>O‘z-o‘zini nazorat qilish</b>	<b>2,36</b>	<b>5</b>
6.	<b>Faollik</b>	<b>2,35</b>	<b>6</b>
7.	<b>Mustaqillik</b>	<b>2,30</b>	<b>7-8</b>
8.	<b>Bardoshlilik</b>	<b>2,30</b>	<b>7-8</b>
9.	<b>O‘zini tuta bilsish</b>	<b>2,21</b>	<b>9-10</b>
10.	<b>Tashabbuskorlik</b>	<b>2,21</b>	<b>9-10</b>
11.	<b>Mardlik</b>	<b>2,14</b>	<b>11</b>

Uchinchi va to‘rtinchi o‘rinlarni egallagan sifatlar orasidagi ballar farqining ishonchliligi Styudentning t-mezoni (kriteriysi) bo‘yicha aniqlandi:  $-1=3,2$ ,  $P=0,95$  uchun.

Yuqorida ta’kidlanganidek, psixofiziologik sifatlar, asosan, texnik mahoratni takomillashtirish jarayonida avtomatik ravishda ishlab chiqiladi, shuning uchun bizning holatimizda tadqiqotga kiritilmagan.

Pedagogik mahoratning shakllanishiga turli sport turlarining ta’sir darajasini baholash 3-jadvalda keltirilgan.

### 3-jadval

#### **Sport ixtisosligining pedagogik mahoratlar shakllanishiga ta’siri (ball)**

Nº	Pedagogik mahoratlar	Sport o‘yinlari		Yakka kurash		Tezlik-kuch sport turlari		Gimnastika	
		M	o‘rin	M	o‘rin	M	o‘rin	M	o‘rin
1.	<b>Kommunikativ</b>	<b>2,70</b>	<b>1</b>	<b>2,44</b>	<b>3</b>	<b>2,45</b>	<b>2</b>	<b>2,41</b>	<b>4</b>
2.	<b>Gnostik</b>	<b>2,58</b>	<b>1</b>	<b>2,17</b>	<b>4</b>	<b>2,30</b>	<b>3</b>	<b>2,31</b>	<b>2</b>
3.	<b>Harakatli</b>	<b>2,82</b>	<b>1</b>	<b>2,55</b>	<b>2</b>	<b>2,25</b>	<b>4</b>	<b>2,45</b>	<b>3</b>
4.	<b>Konstruktiv</b>	<b>2,71</b>	<b>1</b>	<b>2,40</b>	<b>3</b>	<b>2,35</b>	<b>4</b>	<b>2,41</b>	<b>2</b>
5.	<b>Tashkiliy</b>	<b>2,61</b>	<b>1</b>	<b>2,37</b>	<b>2-3</b>	<b>2,14</b>	<b>4</b>	<b>2,37</b>	<b>2-3</b>

Sport o'yinlaridagi birinchi o'rin va boshqa sport turlari egallagan xuddi o'sha pedagogik mahoratlar bo'yicha ikkinchi o'rinar orasidagi ballar farqining ishonchliligi, Styudent t-mezoni (kriteriysi) bo'yicha aniqlandi va ular quyidagicha: kommunikativ –  $t=2,1$ ; gnostik –  $t=2,3$ ; harakatli –  $t=2,4$ ; konstruktiv –  $t=3,0$ ; tashkiliy –  $t=1,8$ . t teor.=2,0 da, r=0,95 uchun.

Shunday qilib, tashkiliy mahoratlarning birinchi o'rni ishonchli hisoblanmaydi.

Turli sport turlarining sportchi shaxsiga ta'siri masalasini kelgusida o'rganish davomida olingan natijaga to'liq va har tomonlama baho berish mumkin. Modomiki, bu vazifa tadqiqotimiz doirasidan tashqarida ekan, bu haqiqatni bildirish bilan cheklanamiz va shakllanishi biz tomonimizdan o'rganiladigan pedagogik mahoratni aniqlaymiz. 4,5,6,7-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, quyidagi pedagogik mahoratlarni shakllantirish jarayonining tadqiqoti istiqbolli hisoblanadi: o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish; sportchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; o'quv-trenirovka mashg'ulotlarini o'tkazish usullarini to'g'ri tanlash; mashqlarning namoyishini to'g'ri bajarish.

#### 4-jadval

#### **Sport o'yinlari bilan shug'ullanishning kommunikativ mahoratlarni shakllanishiga ta'siri (ball)**

Nº	Kommunikativ mahoratlar	M	O'rin
1.	Sportchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish	2,94	1
2.	Tarbiyalanuvchilar bilan umumiyl til topishishi	2,78	2
3.	Tanlangan sport turida zarur bo'lgan jismoniy va psixik sifatlarni tarbiyalash va takomillashtirish	2,74	3
4.	Harakat faoliyatini, uni tahlil qilgan holda tushuntirib berish	2,52	4
5.	O'z tarbiyalanuvchilariga talabchan va hurmat bilan munosabatda bo'lish	2,43	5

Birinchi o'rinning ishonchliligi Styudentning t-mezoni (kriteriysi) bo'yicha aniqlandi:  $t=2,2$ , r=0,95 da.

#### 5-jadval

#### **Sport o'yinlari bilan shug'ullanishning gnostik mahoratlarni shakllanishiga ta'siri (ball)**

Nº	Gnostik mahoratlar	M	O'rin
1.	Shaxsiy faoliyatni tanqidiy tahlil qilish	3,00	1
2.	Sportchilarning jismoniy yuklamasini tartibga solish	2,82	2

3.	Mashg‘ulot jarayoniga asosli o‘zgartirishlar kiritgan holda, kutilmagan vaziyatlarga orientirlashtirish	2,70	3
4.	Xatolarni o‘z vaqtida to‘g‘rilagan holda, mashqlarni bajarish texnikasini nazorat qilish	2,66	4
5.	Sport natijalari, texnika va taktikasining kelajakdagi rivojlanishi to‘g‘risida xulosalar chiqarish	2,56	5
6.	Sportchilarning maxsus va trenirovka yuklamalariga ruhiy bardoshliligini aniqlash	2,51	6

Birinchi o‘rinning ishonchliligi Styudentning t-mezoni (kriteriysi) bo‘yicha aniqlandi:  $t=2,5$ ,  $r=0,95$  da.

### 6-jadval

#### **Sport o‘yinlari bilan shug‘ullanishning konstruktiv mahoratlarni shakllanishiga ta’siri (ball)**

<b>№</b>	<b>Konstruktiv mahoratlar</b>	<b>M</b>	<b>O‘rin</b>
1.	O‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarini o‘tkazish usullarini to‘g‘ri tanlash	<b>2,51</b>	<b>1</b>
2.	<b>Sport tayyorgarligi jarayonini rejorashtirish</b>	<b>2,47</b>	<b>2</b>
3.	<b>Trenirovka yuklamalarini vaqt , takroriyligi, hajmi bo‘yicha belgilash</b>	<b>2,41</b>	<b>3</b>

Birinchi o‘rinning ishonchliligi Styudentning t-mezoni (kriteriysi) bo‘yicha aniqlandi:  $t=2,5$ ,  $r=0,95$  da.

### 7-jadval

#### **Sport o‘yinlari bilan shug‘ullanishning harakat mahoratlarini shakllanishiga ta’siri (ball)**

<b>№</b>	<b>Harakat mahoratlari</b>	<b>M</b>	<b>O‘rin</b>
1.	Mashqlarning namoyishini to‘g‘ri bajarish.	<b>2,94</b>	<b>1</b>
2.	<b>Jamoa va shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilgan holda, o‘z jismoniy sifatlarini takomillashtirish</b>	<b>2,63</b>	<b>2</b>
3.	<b>Amaliy yordam ko‘rsatish</b>	<b>2,55</b>	<b>3</b>

Birinchi o‘rinning ishonchliligi Styudentning t-mezoni (kriteriysi) bo‘yicha aniqlandi:  $t=2,4$ ,  $r=0,95$  da.

Turli sport turlari bilan shug‘ullanishning zarur kasbiy mahoratlarni shakllantirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishida farq mavjud ekanligi haqidagi savolning to‘g‘ri qo‘yilganligiga ko‘plab mutaxassislar shubha qilmagani haqida yana bir muhim xulosa chiqarish mumkin, deb hisoblaymiz.

## XULOSA

Yuqori malakali mutaxassislarning savol-javob natijalari, pedagogik jismoniy tarbiya va sport takomillashuvi jarayonida, pedagogika oliy ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya fakultetlari talabalarining kasbiy mahorat va ko‘nikmalariini shakllantirishda, turli sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanish uchun katta imkoniyatlar mavjudligiga urg‘u berish imkonini beradi. Savol-javob ma’lumotlarini tahlil qilish va umumlashtirish, bo‘lajak mutaxassislarning zarur kasbiy xususiyatlari majmuini shakllantirish metodikasiga har bir sport turlarini yo‘nalishi va ulushi bo‘yicha tizimlashtirishga va tasniflashga yordam berdi.

Voleybolning shug‘ullanuvchilar organizmi va ruhiyatiga ta’sir etishning o‘ziga xos xususiyatlari, uning bir qator pedagogik mahorat va qobiliyatlarni shakllantira olish imkoniyatlari, jismoniy tarbiya mutaxassislarini kasbiy tayyorlash jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin. Bunday mahorat va qibiliyatlar quyidagilar hisoblanadi: ekstremal vaziyatlarda harakat qilish mahorati; doimiy o‘zgaruvchan muhitda to‘g‘ri echimni izlash; o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish va ruhiy holatini boshqarish mahorati.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khudayberganov, O. E. (2019). Modeling The Activities Of A Specialist In Physical Culture As The Basis For Improving The Educational Process. New York Science Journal, 9, 10.
2. Khudaiberganov, O. E. (2019). ON THE ISSUE OF TEACHING VOLLEYBALL AT THE FACULTIES OF PHYSICAL CULTURE OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7, 735.
3. Худайберганов, О. (2019). The Activities OF A Specialist In Physical Culture As The Basis For Improving The Educational Process. New York Science Journal, 10-13.
4. Худайберганов, О. (2019). ON THE ISSUE OF TEACHING VOLLEYBALL AT THE FACULTIES OF PHYSICAL CULTURE OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(12), 735-740.

5. Худайберганов, О. (2019). Волейбол как учебная дисциплина и вид спорта в физкультурно-образовательных учреждениях. In Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш истиқболлари Республика илмий анжумани (pp. 239-240).
6. Худайберганов, О. (2019). Разработка и экспериментальная проверка эффективности средств и организационно-методических приемов обучения волейболу. In Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш истиқболлари Республика илмий анжумани (pp. 469-471).
7. Худайберганов, О. (2019). Теоретические и методические аспекты формирования профессиональных умений у студентов в процессе обучения в высшей школе. In Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш истиқболлари Республика илмий анжумани (pp. 660-662).
8. Худайберганов, О. (2019). Профессиональные умения педагога, формируемые средствами волейбола. POLISH SCIENCE JOURNAL ISSUE 11(20), Warsaw, Poland: Wydawnictwo Naukowe "iScience", 115.
9. Худайберганов, О. (2019). Волейбол спецификаси ва воситалари асосида педагогик маҳоратни шакллантириш имкониятлари ҳамда истиқболлари. Фан ва жамият илмий - услубий журнал Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти, 4, 101.
10. Худайберганов, О. (2019). Мутахассис фаолиятини жисмоний тарбия бўйича моделлаштириш – ўкув жараёнини такомиллаштиришнинг асоси. Фан ва жамият илмий - услубий журнал Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти, 4, 99.
11. Худайберганов, О. (2019). Эркин курашчиларнинг машғулот ва мусобақа фаолиятини ҳисобга олган холда машғулотлар юкламаларини тақсимлаш. Илм сарчашмалари, 2, 63.
12. Ismoilov, D., & Khudayberganov, O. E. (2024). Formation of professional skills of students of the faculty of physical education through sports games. Eurasian Journal of Sport Science, 202, (47), 194-198. <https://eajss.uz>
13. Khudayberganov, O. (2024). The improving of physical qualities of future specialists in physical education and sports with the help of basketball tools. Innovations in Science and Technologies, 1(1), 89-96. Uzbekiston.
14. Khudayberganov, O., & Muratov, S. (2023). O‘yinlararo sikllarda malakali voleybolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish. Urganch Davlat Pedagogika Institute Axborotnomasi, Ilmiy-nazariy, Metodik Jurnal, 3(3), 306-311. Urganch.

15. Khudayberganov, O. (2023). Voleybol vositalari va muammoli o‘qitish usullari yordamida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikmasini bosqichma-bosqich shakllantirish. Ta‘lim va Innovatsion Tadqiqotlar Xalqaro Ilmiy-metodik Jurnal, 6(11), 306-311. Бухоро вилоят босмахонаси.
16. Khudayberganov, O. (2023). Strategies for forming the leadership skills of students through physical education. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(8), 58-60. London.
17. Khudayberganov, O., Yakubov, A. M., & Yakubov, S. M. (2022). Modelirovanie deyatel'nosti spetsialista po fizicheskoy kulture kak osnova sovershenstvovaniya uchebnogo protsessa. Obrazovanie i Innovatsionnye Issledovaniya Mezhdunarodnyy Nauchno-metodicheskiy Zhurnal, 6(4), 215-220. Бухоро вилоят босмахонаси.
18. Khudayberganov, O. (2022). Kurash mashg‘ulotlarida kunlik va haftalaik mikrotsikllar yuklamalarini me‘yorlash. Ilm Sarchashmali Ilmiy-Metodik Zhurnal, 6(9), 102-107. UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.
19. Khudayberganov, O. (2022). Improving the physical qualities of future physical education and sports specialists using volleyball equipment. Science and Innovation, 1(5), 271-276. Academy of Sciences and Innovations.
20. Khudayberganov, O. (2022). Uzlüksiz ta‘limda jismoniy tarbiyani rivojlantirish. Uzlüksiz Ta‘lim Ilmiy Usuliy Zhurnal, 6(Special Issue), 51-55. «ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
21. Khudayberganov, O. (2020). Sport o‘yinlari yordamida jismoniy tarbiya fakulteti talabalarining professional ko‘nikmalarini shakllantirish. Fan-sportga. (Ilmiy Nazariy Zhurnal) – Toshkent, 8.